

## “Vatan himoyachilari kuni”ga bag‘ishlandi

Joriy yilning 18 yanvar kuni institutimizda Vatanimiz osmonining musaffoligiga sabab bo‘luvchi yurt posbonlarining kasbiy bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Dastavval, Harbiy kafedra boshlig‘i podpolkovnik Rafik Zilyevich Minlishev O‘zbekiston bayrog‘ini olib kirishga buyruq berdi. So‘ngra O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi. Keyin esa tantanali yig‘ilishni ochib berish va jamoani tabriklash uchun mikrofon qarshisiga institut rektori, professor Umurzoqov O‘ktam Pardayevich taklif etildi.



So‘ngra so‘zga tabrik uchun Harbiy kafedra boshlig‘i podpolkovnik Rafik Zilyevich Minlishev chiqdi. Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor Shavazov Qodirjon Ochilovich Harbiy kafedra ofitserlari va talabalarini taqdirlash maqsadida rektor buyrug‘ini o‘qib eshittirgach, harbiy kafedra talabasi Abdumannonov Akmal Anvarovich o‘z minnatdorchiligini bildirdi. Keyin esa institut “Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti”, hamda institut Harbiy kafedrasidan tayyorlangan konsert dasturi namoyish etildi.

Ko‘ksi to‘lib egilmasin mag‘rur boshi

Sherdek tursin o‘tsa ham yuzdan yoshi.

Yarashadi ozod yurtga jasur o‘g‘lonlar

Bayramingiz muborak, aziz yurtdoshlar

Mard, jasur, qo‘rqmas o‘g‘lonlar chinakam ma‘noda vatanimiz himoyachilaridir. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 26 yillik shodiyonasi yurtimizda keng miqyosda nishonlangani qalbimizga g‘urur baxsh etadi. Shuning uchun ham ma‘rifiy tadbir **“Mardlar qo‘riqlaydi vatanni”** deb nomlangan. Ma‘lumki, Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq, mamlakatimiz mudofaasini kuchaytirish masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi. Bugungi yoshlarimiz mustaqil vatanimizning posbonlaridir.



Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo‘lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg‘ularini his etib yashash yoshlarimizga xos. Ular qo‘lga kiritgan bunday yutuqlar bilan muqaddas yurtimizda yashayotgan, millati, dini va e‘tiqodidan qat‘i nazar, har bir inson haqli ravishda faxrlansa arziydi. Zeroki, ular mustaqil yurtimizning kelajagidirlar. Sahnaga institutimizning Xarbiy kafedra talabalarini taklif etilgach, **saf tayyorgarligi** va **jang san‘ati** sahna ko‘rinishlari ko‘z oldimizda jonlandi. Ular tomonidan o‘qilgan vatanparvarlik ruhidagi she‘rlar mardlik va jasoratga, faxru iftixorga chorlaydi.

Armiyamiz mustahkam

Xalqparvardir chinakam

Yurtimizda har askar

Jasur, mard va xaloskor.

O‘zbekiston o‘g‘loni,


Bo‘lib tinchlik posboni,

Barcha ezgu insonni,

Sharaflaydi jahonni.

So‘ngra sahnaga O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining ashula va raqs ansambli taklif etildi. Ular o‘zlarining dilgir navolardan tarkib topgan qo‘shiqlar guldastasini taqdim etib, hammaga zavq ulashishdi.

Mustaqil ona yurtimiz osmonida quyosh xamisha porlab tursin. Sizlarga sog'lik-salomatlik, ishlaringizda omadlar tilab qolamiz. Shunday qilib shodiyona bayram dasturi nihoyasiga yetdi.



**“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” MMIB dekan o‘rinbosari Sh.Berdiyev axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**